



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

SO'ZLASHUVGA XOS LEKSIK VOSITALARNING BADIY NUTQDAGI AHAMIYATI

Asqaraliyeva Dilshoda

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti 3-bosqich

Annotatsiya:

Ushbu maqolada so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'zlarning ishlatilishi, sinonimiya hodisasi tahlil qilinadi. Yozuvchi O'tkir Hoshimov ijodi orqali so'zlashuv uslubining badiiy nutqda qo'llanishi haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: sinonimiya, frazeologik ma'nodoshlik, salbiy va ijobiy bo'yoqdorlik, antonimlik, kontekstual antonimiya.

Annotation:

This article analyzes one of the distinctive features of the conversational style — the use of positively or negatively connoted words, as well as the phenomenon of synonymy. Using the works of Otkir Hoshimov as an example, it discusses how the conversational style is applied in literary discourse.

Keywords: synonymy, phraseological similarity, positive and negative connotation, antonymy, contextual antonymy.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'zlarning keng qo'llanishi, subyektiv munosabatni ifodalashga alohida e'tibor qaratilishida kuzatiladi. Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy tarkibida muhim o'rin tutuvchi birliklardan biri hisoblanadi. So'zlashuv uslubida ayollar nutqida o'ziga xos erkalash ifodalovchi birliklar faol qo'llanadi. Masalan: - **Voy, amming aylansin! Voy, amming o'rgilsin sendan!** ("Ikki eshik orasi")

Ma'nodosh so'zlar asar muallifining individual uslubini va personaj nutqining o'ziga xosligini ko'rsatishdan tashqari badiiy asar tilining qay darajada boyligi, uslubiy jihatdan ravonligini ham ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

Tilshunoslikka doir adabiyotlarda sinonimiya hodisasining soʻzlar oʻrtasidagi maʼnodoshlikka asoslangan leksik maʼnodoshlik; iboralar oʻrtasidagi maʼnodoshlikka asoslangan frazeologik maʼnodoshlik; va har ikkalasini ham oʻzida aks ettirgan leksik-frazeologik maʼnodoshlik kabi turlari mavjudligi qayd etiladi. Oʻtkir Hoshimov ijodida maʼnodosh soʻzlar ham oʻziga xos oʻrin tutadi. Oʻzbek sistem leksikologiyasi boʻyicha kuzatishlar olib borgan H.Neʼmatov va R.Rasulovlarning taʼkidlashicha, “Maʼnodoshlik (sinonimiya) qatorlari oʻzbek tilshunosligida atroflicha oʻrganilgan leksik paradigmalardan biridir. Shaklan har xil mazmunan bir xil soʻzlar qatori muayyan oʻxshashlik asosida bir necha til birliklarining oʻzaro bogʻlanishi bu birliklar orasidagi muayyan farqlar, ularning tabiati va yuzaga chiqishi kabilar maxsus ilmiy ishlarda, oʻnlab qoʻllanma va darsliklarda oʻz yechimini topgan».¹

Oʻtkir Hoshimovning oʻzaro maʼnodosh soʻzlarni qoʻllashdagi mahorati bir holat tasvirini berishda birgina soʻz bilan chegaralanib qolmay, balki shu tushunchani ifodalovchi boshqa bir soʻzni ham nutqiy jarayonga ustalik bilan kirita olganligida koʻrinadi.

Masalan, tilimizda “**yigʻlamoq**” maʼnosini ifodalovchi bir qator soʻzlar mavjud. Bu soʻzlar matnda personajlarning turli ruhiy holatlarini aks ettirish maqsadida qoʻllaniladi. Oʻtkir Hoshimov asardagi eng taʼsirchan oʻrinlar, yaʼni asar personajlarining kuchli ruhiy iztirob chekishlarini tasvirlashda yigʻlamoq maʼnosini beruvchi bir qator sinonimik vositalarni qoʻllash orqali tasvirda aniqlik va matn mazmunida boʻyoqdorlik va taʼsirchanlikni taʼminlay olgan:

Bir mahal eshikka yaqinroq joyda xotin kishi **hiqilladi**:

— Ochilim, bolaginam...

Bashor opaning zardali tovushi jimjit zalda qattiq yangradi:

— Oʻgʻlingiz ish koʻrsatganiga suyunish oʻrniga **obidiyda qilasiz-a**, Lazakat xola!(226- bet)

—Yoki yigʻlamoq maʼnosining quyidagi parchalarda berilishiga eʼtibor qilaylik:

—Nima qildi? — dedim oʻzimning dardimni ham unutib. — Nima boʻldi? Hech nima... — Olimjon **yigʻlamsirab** burnini tortdi. — Yoqamdan boʻgʻdi. Yuring, opa, ketamiz...(238- bet)

¹ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Тошкент: Ўқитувчи,1995.-.68 б.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

Birdan oyoq-qo'limdan mador ketib, Olimjonga suyanib qoldim. — Opa! — Olimjon bag'rimga kirib **hiqilladi**. — Ketamiz, opa!(239- bet)

Marja opa o'z qo'li bilan go'r kavlab, o'g'lini qayin tagiga ko'mganini aytib berayotganida **yum-yum yig'ladi**.(253 bet)

Hovli tomondan Ra'no kelinoyimning **o'krab yig'lagani** eshitildi:

— Qandoq kunlarga qoldim!(240 -bet)

Yuqoridagi misollarda qo'llanilgan **“hiqillamoq”, obidiyda qilmoq”, “yig'lamsiramoq”, “yum-yum yig'lamoq”, “o'krab yig'lamoq”** kabi birliklar umumiy holda yig'lamoq ma'nosi atrofida birlashadi va shu tushunchaning turli belgilari, ko'rinishlarini namoyon etadi.

Muallif o'zi tasvirlayotgan vaziyatni tasvirlashda belgini kuchaytirib borish maqsadida qorong'ulik ma'nosini beruvchi «zulmat» so'zini ham qo'llagan. «Zulmat» so'zi qorong'ulik ma'nosini eng kuchli darajada aks ettirgan:

Imillab borayotgan traktor biqinidagi paqirni yulqib oldi-da, **qorong'ilik** cho'ka boshlagan shudgordan yugurib ketdi.

— Qo'rqmaysanmi? — dedim baqirib.Olimjon traktor shovqinidan gapimni eshitmadi shekilli, qayrilib qaramadi. Birpasda **nimqorong'i zulmatga** singib ketdi (232-bet). O'tkir Hoshimov personajlar nutqida o'zaro ma'nodoshlik hosil qiluvchi so'zlardan foydalanish bilan badiiy asar tilida til birliklari takrori tufayli yuzaga keluvchi uslubiy g'alizlikdan, turli xil chalkashliklarning oldini oladi.

Masalan, romanda muallif ayollar o'rtasidagi muloqotni tasvirlar ekan, **“aytmoq”** ma'nosini ifodalovchi bir qator so'zlardan mohirona foydalanadi:

— Qomating Zo'ramday bo'p qopti, Robi! – **dedi** kulib (77- bet)

— Nega uyalarkan, Shokir akam **aytdilar**, Ochilboy Robiyaxonga sovchi qo'ymoqchimish.(77 bet)

Fotima kelin yig'lamoqdan beri bo'lib hasrat qiladi. Bashar opaning yuragi siqilib ketdi shekilli ataylab shang'illadi.(179 bet)

Bir zum sukutdan keyin Bashar opa yangi taklifni **aytdi**.(178-bet) Bashar astoydil jahli chiqqanday **xitob qildi**.(180bet) Erim yo'q-ku, opa! – **dedi** do'rillab. — Bo'lsa topib bering!(179- bet)

Yuqorida keltirilgan misollarda qo'llanilgan **“aytdi”, “dedi”** so'zlarida muallifning personajlar xatti-harakati to'g'risida faqatgina ma'lumot berganligi sezilsa,“xitob



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

qildi”, „hasrat qildi” birikmalarida ma’no qamrovi kengayganligi angashilib turadi. „Hasrat qildi” birikmasida so’zlashdan tashqari “ko’nglidagi dardlari, ichki kechinmalarini bayon qilmoq” ma’nosi ham mujassam. „Xitob qilmoq” birikmasida esa “tinglovchi e’tiborini o’ziga qaratmoq” ma’nosi ham qo’shimcha tarzda namoyon bo’lmoqda.

Adib asarlarida qo’llanilgan ma’nodosh hisoblangan so’zlar personajlar nutqida aniqlik va ifodalilik, harakatlar obrazlilik va ta’sirchanliklikning asta-sekin rivojlanib borishini ta’minlashga xizmat qilgan. Masalan, umuman, bir-biridan ajralmoq ma’nosini ifodalovchi xayrlashmoq, vidolashmoq, alvido aytmq, rizolashmoq ma’nodosh so’zlar tizimidagi xayrlashmoq so’zi tasvirlanayotgan holatning ijobiy belgi-xususiyatini ifodalaydi va adabiy tilimizda keng qo’llanadi. Bu qatordagi xayrlashmoq so’zi tilimizdagi vazifaviy uslublarida birday qo’llanadi va shuning uchun ham mazkur qatorning bosh (dominanta) so’zi hisoblanadi. Buni asardagi ayollar o’rtasidagi suhbat aks etgan quyidagi parchada ham ko’rish mumkin:

— O’rgilay ovsinjon! Cholim o’lgir yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz degan ekan, xovliqma deb yo’lga solish o’rniga o’zi yetaklab voyenkomatga oboribdi. Hech kimga aytmay jo’natib keldi. Bolalarim bilan **rozi-rizolik** ham tilasholmay qoldim. Ovsinjon!

Oyim uni yupatishga urindi. — Nafasingizni issiq qiling aylanay. Yurtga kelgan to’y, mana Kimsanim ham ketdi-ku! O’tiribman yaratganga topshirib...

— Sizniki katta izzat-ikrom bilan ketdi. Bir kun bo’lsa ham diydoriga to’yib qoldingiz. Mening cholim aqalli **xayrlashganiyam** qo’ymadi(343 bet).

Yuqoridagi misollarda qo’llanilgan “rozi-rizolik tilashmoq”, “xayrlashmoq” birliklari o’zaro ma’nodoshlik hosil qilgan va bir tushuncha atrofida birlashsalar-da, ularning ma’nolarida farqlar mavjud. Qahramon xayrlashmoq ma’nosini ifodalashda “rozi-rizolik tilashmoq” birikmasini qo’llash bilan o’zining qarib qolganligiga ham ishora qilmoqda.

Shu ma’no **jilmaymoq** leksemasida bir oz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa bir oz salbiy bo’yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo’yoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

va irshaymoq leksemalarida yanada ortib boradi.”²Ijodkorning ayollardan Robiya va Xolpash o’rtasida bo’lib o’tgan dialogik muloqotida kulgini ifodalovchi shunday holatlar kuzatiladi:

Fotima kelin ko’ylakdan quruq qolmasligiga ko’zi yetib mamnun **iljaydi**.

— Hozir sho’ttaydi. Yurgandir.

— Man so’roqlamasam o’zingni esingga ham kelmaydi-a!

— Xolpash xola boshini ta’na bilan chayqadi.

— Sendaqa onani mushuk yesin! Fotima kelin o’g’ilchasini bag’riga bosgancha darvozaga yugurdi.

— Oypopuk – u! Qayoqdasan. Ha sendaqa daydi qizni mushuk yesin!

Xolpash xola Zuxra kelin ikkalamizni ayvon burchagiga turg’azib qo’yib, gazi bilan galma-galdan bo’y-bastimizni o’lchay boshladi.

— Qomating Zo’ramday bo’p qopti, Robi! – dedi **kulib**.

— Ikkalangga bir qolipda tiksam bo’laverarkan.

— Tap-tayyor kelin-da!

Bir qo’lida o’g’ilchasini ko’targancha, bir qo’lida saqich chaynayotgan besh yashar qizchasini yetaklagan Fotima kelin ayvonga yaqin kelib qah-qah urib kuldi.(293 - bet)

Kelinoyimning bunchalik ravon, bunchalik dona-dona o’qishini endi bilishim. O’zini tutishi ham, ovoziyam, muloyim **jilmayib** turishiyam — hamma-hammasi odamlarni sehrlab qo’ygan edi.(226 -bet)

Fotima – Zuhra kelin **qah-qah urib kulishdi**. Parcha ham ularga qo’shilib do’rilladi.(179- bet) Yuqoridagi misollarda bir tushuncha ifodalovchi leksik birliklar o’zaro ma’nodoshlik hosil qilgan.

Qiziq, so’fi azon aytmasdan odamlarning eshigini qamchi bilan savalaydigan Umar zakunchi bizning darvozaga **kelmay qo’ydi**. Buni hatto oyim ham sezdi.

—Nechuk Zakunchining **qadami uzildi**, Xudo yuzini teskari qilgani rost bo’lsin.(286- bet)

Yuqorida keltirilgan **kelmay qo’ydi va qadami uzildi** so’z va ibora o’rtasida ma’nodoshlik hosil bo’lishida qo’shimcha ma’no nozikliklari yuzaga keladi.Ular

² Жамолхонов Х.Хозирги ўзбек адабий тили.-Тошкент,2005. 163-164-б.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econferences.com

7th November, 2025

personaj nutqida nazarda tutilgan kishilar to'g'risida ma'lumot berishdan tashqari badiiy qimmat ham kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 176 б.
2. Расулов А. Ардоқли адиб. – Тошкент: Шарқ, 2001.
3. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 160 б.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.
5. Улуқов Н. Сўз – чиганок ичидаги гавҳар// Тил ва адабиёт таълими, 2012. – № 11. – Б. 28- 29.
6. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. –Б. 241.
7. Шукуров Р. Сўз вариантлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987. – 22 б.
8. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I – 680 б.; II – 672 б.; III – 688 б.; – Тошкент, 2008. IV – 608 б.; V – 592 б.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002-2006 – 1-12- ж.
11. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
12. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиёшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент:Ўқитувчи, 1983.